

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XALLIYEVA NARGIZA ROZIKOVNA**

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING  
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIRI  
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**UDK: 331.6-051**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of Dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Xalliyeva Nargiza Rozikovna**

Turizm sohasini rivojlantirishning aholi bandligini ta’minlashga ta’siri (Buxoro viloyati misolida) ..... 3

**Халлиева Наргиза Розиковна**

Влияние развития туризма на обеспечения занятости населения (на примере Бухарской области) ..... 25

**Khallieva Nargiza Rozikovna**

Ways to increase the role of tourism in employment of population (On the example of Bukhara region) ..... 47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XALLIYEVA NARGIZA ROZIKOVNA**

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING  
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIRI  
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.1.PhD/Iqt1250 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro muhandislik texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Isakov Janabay Yakipbayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Pardayev Olim Mamayunusovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sayfitdinov Shuxratjon Sultonovich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «02» 03 soʻz 16.03 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ~~18.03~~ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 16 » 02 kuni tarqatildi.  
(2023-yil 16 » 02 dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



*M.P. Eshov*

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

*U.V. Gafurov*

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

*A.A. Eshtayev*

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurligi.** Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turizm salohiyatidan keng foydalanilib, uning boshqa tarmoqlar va sohalar bilan aloqalarining kengayishi ta'sirida shahar va qishloq joylaridagi aholi bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shamoqda. Butunjahon sayyohlik va sayyohlik kengashi (World Travel and Tourism Council)ning ma'lumotlariga ko'ra, "2019-yilda jami 272 million kishi turizm sohasida band bo'lgan va 2019-yildagi xalqaro turistlar soni esa 1,5 milliardga teng bo'lgan. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita 284 million ish o'rinalining ekvivalenti dunyodagi har 11 ish o'rnidan bittasiga tengdir. 2026-yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 370 million ish o'rinaliga ko'payishi kutilib, bu dunyodagi har 9 ish o'rinalidan birini tashkil etadi"<sup>1</sup>. Turizmning ko'plab iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga olgan, tez rivojlanayotgan va mehnat talab qiladigan asosiy soha sifatida aholi bandligini ta'minlash imkoniyatlari ham kengayib bormoqda.

Jahondagi globallashuv jarayonlarining kengayib borishi sharoitida turizmning aholini ish bilan bandligini ta'minlashdagi yuqori salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Turizmning barqaror rivojlanishiga investitsiyalarning ta'siri, tarmoqning mehnat talab qilish salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish, tarmoqdagi daromad yoki kapital qo'yilmalar darajasining ish o'rinalari yaratishga bog'liqligi, turizm tarmog'ida mintaqalararo va xalqaro pul oqimlarini tartibga solish, turizm sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, mehnat faoliyati mavsumiyligi ta'sirini pasaytirish, chekka hududlarga mahalliy hamda xorijiy turistlarni jalb etish orqali turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini oshirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston turizm va madaniy meros Vazirligi tomonidan "Fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'limgan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyoohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va/yoki ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda, ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi beriladi"<sup>2</sup>. Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish o'z navbatida oilaviy mehmon uylarini tashkil etish xarajatlarining muayyan qismini davlat tomonidan subsidiyalash asosida turistlarga mehmonxona xizmati hajmini oshirish orqali aholining qo'shimcha bandligini ta'minlash, mahalliy va xorijlik turistlarga sayohat jarayonida qulaylik yaratish maqsadida aeroport hamda temir yo'l vokzallari yonida mahalliy aholi tomonidan avtomobilarni ijaraga berish va avtomobilarga yengil xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish orqali qo'shimcha ish o'rinalini yaratish, viloyat tarixiga oid tarixiy manbalarni targ'ib etuvchi

<sup>1</sup> <https://www.ilo.org>

<sup>2</sup> Ҳалқ сўзи 14.08.2019 <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-turistik-mahallalar-qishloqlar-va-ovullar-pajdo-boladi>

qo'shimcha mutaxassislar va muzey xodimlari bandligini ta'minlash, turizm sohasini rivojlantirish orqali aholini bandligini ta'minlashning uzoq muddatli istiqbollarini tadqiq etish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 13-avgustdaggi PF-5781-soni "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2016-yil 12-fevraldagi PF-4861-soni "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-soni "2017–2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'r ganilganlik darjasи.** Xorijlik iqtisodchi olimlar S.Kosta, I.Karvalio, Z.Breda, L.D.Santos, Dj.Varexao turizm sohasidagi bandlik va daromadlar taqsimoti bo'yicha, B.Jiang, Dj.Tribe turizm sohasidagi qisqa muddatli kasblar xususida, L.Aguliar, M.Vargas esa turizm sohasida ayollar va erkaklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti, T.Griffin, T.Delasey turizm sohasini rivojlantirishda atrof-muhitni ham inobatga olish lozimligini ta'kidlagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi, ish bilan bandlik va ishsizlik muammolarining ilmiy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, G.E.Slezinger, R.D.Erenberg, A.Pigu va boshqalar tomonidan tadqiq qiingga.

MDH iqtisodchi olimlaridan L.K.Ayushiyeva, N.I.Malix, L.P.Obedkova aholining bandligi iqtisodiyot va xalq farovonligining muhim belgilaridan biridir hamda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash muammosi eng muhimlaridan biri hisoblanadi, chunki u davlatning ijtimoiy barqarorligi istiqbollari bilan bevosita bog'liqidir, deb ta'kidlaganlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtaev, A.N.Norchayev, B.I.Ashurov, A.Isadjonov, I.Gulmuratov, B.N.Navro'zzoda tomonidan turizm sohasidagi ishsizlikning sabablari, turizm sohasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, Globalashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi,O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalari mintaqadagi iqtisodiy o'sish hamda turizmning rivojlanishi kabi mavzularda tadqiqot ishlari olib borganlar<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> C.Costa, I.Carvalho and Z.Breda, "Gender inequalities in tourism employment. The Portuguese case", Revista Turismo & Desenvolvimento, vol.15,pp. 37-52, 2011, L.D. Santos and J. Varejão, "Employment, pay and discrimination in the tourism industry", Tourism Economics, vol. 13(2),pp. 225-240, 2007, B. Jiang and J. Tribe,

Ta'kidlash lozimki, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida turizmni rivojlantirish va ish bilan bandlikning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari qisman o'z aksini topgan. Respublikamizda aholi bandligini ta'minlashda turizm xizmatlarini rolini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq №8-sonli "Raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida Buxoro viloyatida innovatsion natijadorlikka erishish yo'llari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda, xususan Buxoro viloyati hududida turizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganish;

turizm sohasida aholi bandligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'rganish;

aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirish borasidagi xorij tajribasini tadqiq etish;

Buxoro viloyatida turizm sohasidagi aholi bandligining amaldagi holatini tahlil qilish;

aholining turizm sohasidagi bandligiga ta'sir etayotgan omillarni tahlil qilish;

turizm sohasidagi aholi bandlik darajasi bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish;

turizm sohasidagi aholi bandlik darajasini oshirish bo'yicha ilmiy yangilik va tavsiyalarni ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Buxoro viloyati turizm sohasi subyektlari faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** turizm sohasida aholi uchun yangi ish o'rinalarini yaratish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida ilmiy abstraktsiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash,

---

"Tourism jobs--short lived professions: Student attitudes towards tourism careers in China", Journal of Hospitality, Aguilar L, Vargas M (2016) Tourism: Gender makes a difference. IUCN—the World Conservation Union. Leisure, Sport and Tourism Education, vol. 8(1), pp. 4-19, 2009, Griffin T, DeLacey T, (2002) Green Globe: sustainability accreditation for tourism. In Sustainable Tourism: A Global Perspective. Harris R, Griffin T and Williams P, Н.И. Малых, Л.П. Объедкова ЗАНЯТОСТЬ В ОТРАСЛЯХ ТУРИЗМА, Проблемы экономики и менеджмента № 2 (6) – 2012. Л.К. Аюшиева ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ, ВЕСТНИК БУРЯТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА 2(2)/2015. А.М.Абдувohidov Ў.Х.Хўжаев "Халқаро туризмда сиёсатни шакллантириш" ўқув кўлланма, ТДИУ-2007й. А.А.Эштаев "Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси" диссертация, Самарканд-2019й. А.Н.Норчаев "Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари" диссертация, Тошкент-2021й. Bahtiyor Iskandarovich Ashurov, ICHKI TURIZMNI AYOLLARNI ISH BILAN TA'MINLASHDAGI TA'SIRI, ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, VOLUME 2, ISSUE 4, 2021, Abduvali Isadjanov, Ilyos Gulmuratov, O'zbekistonda Turizmni rivojlantirish: zamonaviy tendensiyalar va milliy ustuvorliklar, The Light of Islam, 1-сон 2020 йил, Б.Н.Наврӯз-зода, Н.С.Ибрагимов "Туристик худуд ракобатбардошлигининг кўп даражали модели" монография, Бухоро-2018.

taqqoslash, tizimli tahlil, statistik prognozlashtirish, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliqi** quyidagilardan iborat:

Buxoro amirligi tarixiga oid hali keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazilmagan muhim ma'lumotlar, noyob qiziqarli eksponatlar bo'yicha keng va batafsil yoritib beruvchi qo'shimcha taqdimot xonalari hamda oynavand ekspozitsiyalarni tashkil etish orqali qo'shimcha mutaxassislar va muzey xodimlari bandligini ta'minlash taklifi asoslangan;

mahalliy va xorijlik turistlarga sayohat jarayonida qulaylik yaratish maqsadida aeroport hamda temir yo'l vokzallari yonida mahalliy aholi tomonidan avtomobilarni ijaraga berish va avtomobilarga yengil xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish orqali qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish asoslangan;

oilaviy mehmon uylarini tashkil etish xarajatlarining 30 %gacha miqdorini davlat tomonidan subsidiyalash asosida turistlarga mehmonxona xizmati hajmini oshirish orqali aholining qo'shimcha bandligini ta'minlash taklif etilgan;

Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashning 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turizm sohasidagi bandlik darajasi hamda unga ta'sir etuvchi ijobjiy hamda salbiy omillarni hisoblab borish lozimligi amaliy jihatdan asoslangan;

davlat hamda xususiy sektor hamkorligi orqali turizm sohasini rivojlantirish va undagi aholi bandligini oshirish amaliy jihatdan o'rganilgan;

turizm sohasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan;

milliy qadriyatlarga asosan faoliyat yuritadigan ovqatlanish maskanlarini ko'paytirish, turistlar oqimini yaxshilashga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** turizm sohasida aholi bandligini oshirishning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislarining ilmiy qarashlarini tadqiq qilinganligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan olinganligi va ma'lumotlarini tahlili bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan turizm sohasi orqali iqtisodiyotdagi bandlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asoslarini boyitishda hamda ilmiy apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan respublika hududlaridagi turizm salohiyatidan foydalangan holda qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish borasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish, aholi bandligini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarning amaliy jihatlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirish yo'llari bo'yicha "Mehnat iqtisodiyoti", "Turizm asoslari", "Iqtisodiyot asoslari", "Milliy iqtisodiyot" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizm sohasini rivojlantirishning aholi bandligini ta'minlashga ta'siri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oilaviy mehmon uylarini tashkil etish xarajatlarining 30 % gacha miqdorini davlat tomonidan subsidiyalash asosida turistlarga mehmonxona xizmati hajmini oshirish orqali aholining qo'shimcha bandligini ta'minlash taklifi Buxoro viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi tomonidan "Viloyatda turizm salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining 2022-yil 6-yanvardagi 03-17-02/43-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida fuqarolarning o'z turar joylaridan unumli foydalanishi hamda turizm sohasida 25 mingdan ortiq ish o'rinalarini tashkil etish imkonini yaratgan;

mahalliy va xorijlik turistlarga sayohat jarayonida qulaylik yaratish maqsadida aeroport hamda temir yo'l vokzallari yonida mahalliy aholi tomonidan avtomobilarni ijaraga berish va avtomobilarga yengil xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish orqali qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish taklifi Buxoro viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi tomonidan "Viloyatda turizm salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining 2022-yil 6-yanvardagi 03-17-02/43-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi turistlar uchun yengillik va qulayliklar yaratish hamda turizm imijini oshirish imkonini bergen;

Buxoro amirligi tarixiga oid hali keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazilmagan muhim ma'lumotlar, noyob qiziqarli eksponatlar bo'yicha keng va batafsil yoritib beruvchi qo'shimcha taqdimot xonalari hamda oynavand ekspozitsiyalarni tashkil etish orqali qo'shimcha mutaxassislar va muzey xodimlari bandligini ta'minlash taklifi Buxoro viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi tomonidan "Viloyatda turizm salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining 2022-yil 6-yanvardagi 03-17-02/43-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi viloyatdagi tarixiy manbalarni jamoatchilikka keng targ'ib etish, muzeylar va ko'rgazmalar salohiyatidan foydalanishni kengaytirish asosida qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish hamda turistlar oqimini oshirishga imkon yaratgan;

Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashning 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Buxoro viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi tomonidan "Viloyatda turizm salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining 2022-yil 6-yanvardagi 03-17-02/43-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi viloyatda uzoq muddatli istiqbolda turizm sohasini rivojlantirish orqali aholini bandligini ta'minlashning prognoz parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, shundan 8 tasi respublika va 4 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda, xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda 14 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan holda 128 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, aholi bandligini oshirishning dolzarbligi, turizm sohasi orqali aholi bandligini oshirishning davlat iqtisodiyotiga ijobjiy ta'siri yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi**"ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, turizm sohasida aholi bandligini tafsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi, aholi bandligini ta'minlashda turizm sohasining rolini oshirish borasidagi xorij tajribasi va O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Aholining bandligi davlat iqtisodiyoti uchun muhim hisoblanadigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki, ular tomonidan yaratiladigan mahsulot va xizmatlar davlat YaIMini shakllantiradi hamda to'lanayotgan soliqlar orqali davlat byudjeti daromadlari shakllantiriladi. Har bir davlat o'z fuqarolarining ish bilan bandlik darajasini oshirishga katta e'tibor qaratadi hamda bu bo'yicha turli xil dasturlar ishlab chiqadi. Ushbu dasturlarning asosiy vazifani iqtisodiyotning qaysidir tarmog'ida ish bilan bandlikni ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish bo'lishi mumkin. Davlat uchun ishlab chiqarish sohasi orqali aholi bandligini ta'minlashdan ko'ra xizmat ko'rsatish orqali ularning bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgalama samarali hisoblanadi.

Turizm bo'yicha umumiy ta'riflardan biri bu turizm bo'lib, unga xarajatlarni keltirib chiqaradigan iqtisodiy faoliyat sifatida qaralgan. Ushbu ta'riflardan farqli o'laroq Burkart va Medlik tomonidan ham kiritilgan ta'rifga ko'ra: "Turizm odamlarning odatda yashash va ishlash joylaridan tashqaridagi joylarga vaqtincha qisqa muddatli harakatlanishi va ushbu yo'nalishlarda qolishlaridir". ularning ta'rifi turizmnинг ikkita asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatib beradi: bir joydan ikkinchi joyga borish va u yerda vaqtinchalik qolish kabi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi. Bundan tashqari, Petrova va Meyson turizm yo'nalishida olingan ko'nikmalar ish beruvchilar tomonidan ushbu darajalar haqida yomon tasavvurga ega bo'lganlar tomonidan past baholanishini aniqladilar. Shunday qilib, malakali inson resursi sifatida turizm mehnat bozoriga kirish qiyin bo'lishi mumkin, shuning uchun ikkinchi imkoniyat, turizm bitiruvchilarining ushbu sohada

ishlashga qiziqishlariga qaramay, ular turizm sohasida ish topishda qiynalayotganliklari bilan bog'liq deb ta'kidlaganlar<sup>4</sup>.

Turizm barqaror rivojlanishning muhim vositasi sifatida paydo bo'ldi va turizm sohasidagi investitsiyalar miqdori kam bo'lsa ham, ularning sohadagi ahamiyati e'tibordan chetda qoldirilmasligi kerak. Turizm sanoatining muhim xususiyatlaridan biri bu uning mehnat talab qilishidir. Daromad yoki kapital qo'yilmalarning ma'lum darajasi turizmda ko'plab boshqa ish o'rirlari yaratadigan daromadlar yoki investitsiyalar bilan taqqoslaganda ko'proq ish o'rirlarini yaratadi. Shuningdek, turizm mintaqalararo va xalqaro pul oqimlarining muhim manbai hisoblanadi. Turizmning salbiy ta'siriga maydonlarni bosib olish, ifloslanish va tirbandlikning o'sishi, narxlarning ko'tarilishi (masalan, yer, uy-joy, oziq-ovqat va xizmatlar), malakasi past va kam maoshli ish joylari, mavsumiy ishsizlik, tabiiy va madaniy merosga salbiy ta'sirlar va turizmga haddan tashqari qaramliklar misol bo'ladi. Bunday kamchiliklar, ba'zida turizm ehtiyojkorlik bilan rivojlantirilsa ham yoki nazorat qilinsa ham baribir mavjuddir.

1-jadvalda turizmning mumkin bo'lgan ta'sirlari misollar keltirilgan.

### 1-jadval

#### **Turizmning mumkin bo'lgan ta'sirlari<sup>5</sup>**

Ijobiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Daromadning oshishi / turmush darajasining yaxshilanishi	Turizm sohasiga haddan ortiq qaramlik
Ish o'rirlarini yaratish	yer, uy-joy, oziq-ovqat va xizmatlar narxlarining oshishi
Infratuzilmani rivojlantirish	Ifloslanish va transport; tirbandlik
Davlat byudjetining soliqli daromadlarini oshirish	Ochiq maydonlarni egallab olish
Tabiiy va madaniy merosga oid xabardorlikni oshirish	Madaniy va tabiiy merosga salbiy ta'sir
Kapital bilan ta'minlash	Rivojlanishning noo'rin shakli va ko'lami
Savdo aloqalarini yaxshilash	Mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi nizolar

Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rirlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda deyarli har bir rivojlanayotgan davlat turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda, sababi aslini olib qaraladigan bo'lsa xizmat ko'rsatish sohasining rentabellik darajasi yuqori bo'ladi. Dissertatsiyamizning ushbu qismida rivojlanayotgan davlatlarning turizm sohasidagi islohotlarini tahlil qilamiz. Singapur davlatini bilamizki turizm xizmati orqali hozirgi kunda dunyoda rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi, buning sabablaridan biri Singapurdag'i turizm

<sup>4</sup> Petia Petrova and Peter Mason, The value of tourism degrees: a Luton-based case study, 2014, Education and Training.

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi.

kengashining samarali faoliyatidir. AQShda 9 millionga yaqin ish o‘rnini bevosita davlatdagi ichki hamda xorijiy turistlar hisobiga shakllantirilgan hisoblanadi. Xususiy sektorda esa turizm ish beruvchi sektor sifatida 7-o‘rinda qayd etiladi. Xususiy sektorda har 10 ta ish o‘rnidan bittasi turizm hisobiga shakllantirilgandir.

Turizm sektorida band bo‘lgan aholi Kanada ishchi kuchining 10 foizini tashkil qiladi - 200 000 ish joyida 1,8 million ishchi faoliyat yuritadi. Turar joy, oziq-ovqat sayohat xizmatlari, dam olish va o‘yin-kulgi hamda transport orqali turizm sanoati Kanada yalpi ichki mahsulotining deyarli 5 foizini ishlab chiqaradi. 2021–2022-yillarda Kanada merosi departamenti va Kanada san’at kengashiga KOVID-19 uchun xavfsiz tadbirlar va san’at, shu jumladan, jonli va raqamli tadbirlarni rejalashtirish va taqdim etishni qo‘llab-quvvatlash hamda ushbu sektorlarda ish imkoniyatlarini ta’minlash uchun 181,5 million dollar mablag‘ ajratildi. Bunga San’at va meros orqali hamjamiyatlarni qurish dasturi, Kanada san’at taqdimoti jamg‘armasi va Kanada musiqa fondi uchun 2019-yilgi Byudjetda taqdim etilgan moliyalashtirishning bir yillik yangilanishi kiradi<sup>6</sup>.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobiga “**O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligi va turizm sohasida bandlikning zamonaviy holati**”ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda turizm sohasidagi aholi bandligining amaldagi holati, turizm sohasida aholi bandligining zamonaviy holati, aholining turizm sohasidagi bandligiga ta’sir etayotgan omillar yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida aholining bandligini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar ko‘rib chiqilmoqda, bundan asosiy maqsad, aholi daromadlarining oshishi bevosita davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda davlat byudjeti daromadlarining ham oshishiga olib keladi. 2020-yilda bo‘lgan pandemiya butun dunyodagi aholining bandlik darajasiga ta’sir ko‘rsatdi, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Shunday bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekistonda bu borada qator o‘zgarishlar qilindi va tegishli choralar ko‘rib kelinmoqda.

Umumi statistikaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlariga binoan O‘zbekistonda iqtisodiy faol va iqtisodiyotda band aholi to‘g‘ridagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin (2-jadval)

**2-jadval**

**Iqtisodiy faol aholi soni<sup>7</sup>**

	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
<b>Iqtisodiy faol aholi – jami (ming kishi)</b>	13505.4	13767.7	14022.4	14357.3	14642.0	14876.4	14797.4	14980.7
<b>Ayollar</b>	6149.6	6275.5	6391.1	6556.3	6246.0	6434.6	6358	6584
<b>Erkaklar</b>	7355.8	7492.2	7631.3	7801.0	8396.0	8441.8	8439	8396
<b>Iqtisodiyotda band bo‘lganlar (ming kishi)</b>	12818.4	13058.3	13298.4	13520.3	13273.1	13541.1	13236,4	13538,9
<b>Ayollar</b>	5848.1	5964.3	6073.6	6189.2	5523.8	5609.4	5625.1	5636

<sup>6</sup> Government of Canada <https://www.budget.gc.ca/fes-eea/2020/themes/tourism-hospitality-en.html>

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

<b>Erkaklar</b>	6970.3	7094.0	7224.8	7331.1	7749.3	7931.7	7875.9	7902
<b>Ishsizlar</b>	687.0	709.4	724.0	837.0	1368.6	1335.3	1561.0	1441.8
<b>Ayollar</b>	301.5	311.2	317.5	367.1	722.2	825.3	846.2	838
<b>Erkaklar</b>	385.5	398.2	406.5	469.9	646.4	510	634.5	603.8

Endi bevosita Buxoro viloyati kesimida iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilamiz (3-jadval).

### 3-jadval

#### Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni(ming kishi)<sup>8</sup>

Kategoriylar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	868.5	872.4	872.4	874.6	887.7	875.4	876.7	862.2	860.6
Ulardan:	iqtisodiyotda bandlar	823.2	824.2	825.3	826.5	810.1	797.1	783.6	777.3
	ishsizlar	45.3	48.2	47.1	48.1	77.6	78.3	93.1	84.9
Aholining iqtisodiy faollik darajasi 1), foizda	83.5	83.1	82.4	81.9	82.1	80.8	82.3	90.1	91.1
Aholining bandlik darajasi 2), foizda	79.2	78.5	77.9	77.4	74.9	73.5	73.5	75.6	74.8
Ishsizlik darajasi, foizda	5.2	5.5	5.4	5.5	8.7	8.9	10.6	9.8	8.8

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ishsizlik darajasi Buxoro viloyatida o‘sish tendensiyasiga ega hamda aholining bandlik darajasi esa kamayayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichning o‘sish darjasi 2017-yildan so‘ng yuqori bo‘lgan ya’ni 2017-yilda 5.5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 3.3 foizga oshib 8.7 foizni tashkil etgan. 2020-yilda esa bu ko‘rsatkich 10.6 foizni tashkil etgan, ammo bu o‘sishni pandemiya bilan izohlashimiz mumkin.

O‘zbekiston respublikasida Yalpi hududiy mahsulot hajmini tahlil qiladigan bo‘lsak u, yillar kesimida quyidagi tarzda ifodalanadi (4-jadval).

### 4-jadval

#### 2018–2022-yillarning yalpi hududiy mahsulot hajmi dinamikasi (mlrd. so‘m)<sup>9</sup>

	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	176 906,9	224 225,4	255 252,6	738 425,2	888 341,7
Qoraqalpog‘iston respublikasi	6 416,3	8 073,0	8 959,4	25 681,8	29 925,4
Andijon	10 414,9	13 513,2	16 127,2	43 332,5	54 464,0
Buxoro	8 799,3	11 353,1	13 085,4	38 350,1	45 797,3
Jizzax	4 623,6	5 885,6	6 988,8	23 274,3	27 140,8
Qashqadaryo	12 104,9	14 052,2	15 280,1	42 560,2	49 520,8
Navoiy	10 028,8	16 061,6	22 111,5	58 730,3	66 685,4
Namangan	7 189,4	9 185,9	10 833,8	34 194,1	41 098,2
Samarqand	12 149,0	15 100,7	16 612,9	52 893,6	62 440,3
Surxondaryo	8 183,9	9 880,4	11 381,3	29 693,2	34 858,5

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

Sirdaryo	3 280,8	4 597,7	4 825,8	15 071,5	18 136,8
Toshkent	16 797,3	22 699,8	26 506,3	82 221,8	93 433,1
Farg‘ona	11 219,1	15 100,2	16 857,3	47 760,5	55 972,1
Xorazm	6 047,2	7 733,3	8 954,5	26 464,3	31 963,1
Toshkent shahar	25 463,6	36 787,3	40 797,7	121 779,8	147 414,6

Hududlar kesimida YaHMni tahlil qiladigan bo‘lsak ko‘rishimiz mumkinki, barcha viloyatlar kesimida YaHM miqdori yillar kesimida o‘sish tendensiyasiga egadir. Buxoro viloyatida YaHM 13 085,4 mld. so‘mni tashkil etdi va 1,0 %ga o‘sdi. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 103,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 40,9 %), qurilishda – 104,2 % (9,6 %)ni tashkil etdi. Shuningdek, 2019-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda sanoat tarmog‘ida va xizmatlar sohasida ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) hajmining solishtirma narxlarda kamayishi kuzatildi hamda mos ravishda 98,0 % va 99,5 %ni tashkil etdi (mazkur tarmoqlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 19,0 % va 30,5 %). Aholi jon boshiga YaHM 0,4 %ga kamaydi va 6 786,3 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu yalpi hududiy mahsulot miqdoriga mehnat resurslarning ta’siri tahlilini ko‘ramiz, ya’ni ular o‘rtasidagi korrelyatsion koeffitsiyentni aniqlaymiz (5-jadval).

#### 5-jadval


#### Mehnat resurslarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi(ming kishi)<sup>10</sup>

	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Buxoro viloyati	1055,8	1065,4	1073,1	1081,6	1083,8	1070,4	1070,5
Buxoro sh.	160,6	162,1	163,5	159,5	159,3	163,8	180,5
Kogon sh.	42,7	43,1	43,2	33,6	33,6	33,6	33,5
tumanlar:							
Olot	53,6	54,1	54,4	55,0	54,8	53,9	53,7
Buxoro	86,9	87,7	88,3	91,4	91,6	91,9	87,9
Vobkent	75,0	75,7	76,0	77,2	76,8	82,3	80,1
G‘ijduvon	161,4	162,9	164,1	171,5	169,1	168,0	163,5
Kogon	45,0	45,4	45,5	41,8	42,0	43,5	43,4
Qorako‘l	88,8	89,6	90,3	91,2	90,3	88,3	86,4
Qorovulbozor	15,3	15,4	15,5	23,3	28,3	19,4	20
Peshku	64,2	64,8	65,2	67,5	67,1	66,2	65,8
Romitan	79,9	80,6	81,3	77,1	78,0	77,5	76,1
Jondor	89,1	89,9	90,6	94,3	94,7	85,1	86,0
Shofirkon	93,3	94,1	95,2	98,2	98,2	96,9	93,6

Umumiy tahlil qiladigan bo‘lsak, Buxoro viloyati kesimida mehnat resurslari hajmi o‘sish tendensiyasiga egadir. 2021-yilda 2015-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 1,3 foizga oshgan, faqat so‘nggi yilda deyarli barcha tumanlarda pasayish kuzatilgan va bu pasayishni pandemiya bilan izohlash mumkin. Endi YaHM tarkibidagi jami xizmatlar hamda mehnat resurslari o‘rtasidagi korrelyatsiya

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

koeffitsiyentini hisoblaymiz. Ushbu hisob-kitoblarni aniqlashda 10 yillik ma'lumotlardan foydalanildi (1-rasm).




**1-rasm. YaHM tarkibidagi jami xizmatlar va mehnat resurslari o'rtaqidagi korrelyatsiya<sup>11</sup>**

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlardan foydalangan holda hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.84 ga tengdir.

$$r = \frac{n(\sum xy) - (\sum x)(\sum y)}{\sqrt{[n\sum x^2 - (\sum x)^2] [n\sum y^2 - (\sum y)^2]}} = 0.84$$

Bu ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu orqali mehnat resurslarining asosiy qismi xizmat ko'rsatish sohasida ekanligi bo'yicha xulosaga kelishimiz mumkin. Ammo so'nggi davrda xizmatlar hajmi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.



<sup>11</sup> Muallif tomonidan hisoblandi.

## **2-rasm. Iqtisodiy o'sish hamda turizm sohasidagi bandlik(ming kishi)<sup>12</sup>**

2011–2019-yilgacha turizmning YaIMdagi ulushi YaIMning umumiy o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Turizmning YaIMdagi ulushi 2020-yilda 49.1%ga pasaygan bo'lib, bu \$4.498 milliardga tengdir.

So'nggi o'n yil ichida Turizm ish o'rinalarini yaratish va bandlikning dinamik mexanizmi uchun muhim omil bo'ldi. 2019-yilda ushbu sektor 334 million ish o'rinalarini yaratdi (barcha ish o'rinalarining 10,6 foizi) va barcha ish o'rinalarining 4 tadan 1 tasini yaratishga erishdi.


2014–2019-yillarda butun dunyo bo'ylab aniq yangi ish o'rinalari. Pandemiyadan oldin Sayohat va Turizm global miqyosdagi eng xilma-xil sektorlardan biri bo'lib, bu quyidagilar bilan ifodalanadi:

turizmning butun dunyo bo'ylab bandligining 54 %i ayollar hissasiga to'g'ri keladi;

boshqa tarmoqlarga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p ayol ish beruvchiga ega bo'lgan sektordir;

sayohat va turizm umumiy iqtisodiyotga qaraganda yoshlarning ulushi ko'proq. Darhaqiqat, yoshlar bandligi eng yuqori bo'lgan sektor hisoblanadi.

Dunyoda mehmonxona va transport narxini pasaytirish; Dunyo bo'ylab sayyoohlarga oson viza va transport ta'minlanishi kerak; mamlakatlarning kirish va chiqish nuqtalarida yaxshi va qat'iy karantin ta'minlanishi kerak; Turist o'zini yaxshi tutishi va hech qachon ularga yomon so'zlarni ishlatmasligi kerak; Dunyo bo'ylab turistlarni har doim sayyoqlik joyida hurmat qiling. Tizimni boshqarish uchun turizm sohasida yaxshi va xalol xodimlar tayinlanishi kerak. Butun dunyo hukumati tomonidan turizmni rivojlantirish uchun yaxshi siyosat tayyorlanishi kerak.



## **3-rasm. Turizm sanoatiga ta'sir etuvchi omillar<sup>13</sup>**


Turizm – bu odamlar bir joydan ikkinchi joyga dam olish va vaqt o'tkazish uchun borish jarayoni hisoblanadi. Bu mamlakat taraqqiyotida katta rol o'ynaydi.

<sup>12</sup> World Tourism Organization (UNWTO) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Turli xil tovarlarga bo‘lgan sayyohlik talabi ortib bormoqda va dunyoning turli xil madaniyati bir madaniyatda bir xil holga kelmoqda. Bir tomondan rivojlanish sodir bo‘lgan, ammo boshqa tomondan dunyodagi turli mamlakatlardan turli xil kasalliklar tarqalmoqda.

Butun dunyo iqtisodiyotida turizm sohasining o‘rni yuqori ekanligi ma’lum, bu bo‘yicha bir qator faktlarni hamda statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz. Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy o‘sish 2018-yildagi 5,1 foizdan 2019-yilda 4,4 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, COVID-19 pandemiyasi natijasida pasayish sezilarli darajada oshdi 3,1-rasm. Virusning butun dunyo bo‘ylab tarqalishining davom etishi va u bilan bog‘liq iqtisodiy notinchliklar ichki va tashqi iste’mol talabi, ishlab chiqarish, investitsiya va turizmga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, 2020-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi iqtisodiy o‘sishi 2,2 foizga qisqarishi kutilmoqda, bu mintaqada o‘nlab yillar davomida kuzatilgan birinchi salbiy iqtisodiy o‘sish sur’ati va 2019-yildagi o‘sish sur’atidan qariyb 7 foiz punktga pasayishdir. 2008–2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz davridagiga nisbatan pasayish sezilarli darajada kuchliroq hisoblanadi.



#### 4-rasm. Dunyo va mintaqaviy iqtisodiy o‘sish<sup>14</sup>

Covid-19 inqirozining diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri shundaki, birorta ham mamlakat iqtisodiy yo‘qotishlardan quruq qolmagan. Shunga qaramay, ta’sirning kattaligi mamlakatlar orasida katta darajada farq qiladi.

Pandemianing nafaqat kelajagi bilan bog‘liq, balki uning iqtisodiyotga salbiy ta’sirini yumshatish uchun olib borilayotgan siyosatning samaradorligi va fiskal barqarorligi bilan bog‘liq ko‘plab iqtisodiy siyosat noaniqliklari mavjud. Iqtisodiy noaniqlik 2019-yilda allaqachon yuqori bo‘lgan, bu asosan geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlari bilan bog‘liq edi. Covid-19 inqirozi davrida iste’mol va investitsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan iqtisodiy noaniqlik yanada oshdi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobи “O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashda turizm sohasining rolini oshirish”ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda aholi bandligini ta’minlashda turizm sohasining rolini


<sup>14</sup> Calculations based on IMF, World Economic Outlook database, October 2020

oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar, turizm sohasining aholi bandligini ta’minlashdagi rolini oshirish yo‘llari yoritib berilgan.

An’anaviy xalq hunarmandchiligi markazlari, hunarmandlar, badiiy an’analarga oid mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish – inventarlarni kataloglashtirish bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda ham jahon hamjamiyatining bir qismi sifatida dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda xalq hunarmandchiligini ilmiy jihatdan o‘rganish, ayrim markaz va hududlardagi hunarmandchilikning badiiy-texnologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, xalq hunarmandlari va yo‘qolgan hunarmandchilikni aniqlash va shu orqali hunarmandchilikning o‘ziga xos an’analarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Masalan, badiiy hunarmandchilikka qaratilayotgan katta e’tibor tufayli bu soha mahalliy va tashqi bozorda katta daromad keltirmoqda, biroq bu an’analarni o‘rganish yetarli darajada emas.

Xalqaro Savdo Markazi (ITC) – Juhon Savdo Tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining qo‘shma agentligi, savdoni qo’llab-quvvatlash institutlari va siyosatchilarga hamkorlar bilan barqaror va inklyuziv rivojlanish yechimlarini taqdim etish orqali rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti davridagi mamlakatlarda kichik biznes eksporti muvaffaqiyatini ta’minlashdan iborat bo‘lgan vazifalarga e’tibor qaratadi.

Bunda eng asosiy jihatlardan biri bu hunarmandchilik mahsulotlarini to‘g‘ri reklama qilishdir. Bunda reklamani quyidagicha qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.




**5-rasm. Qo‘l mehnati bilan tayyorlanadigan milliy hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish<sup>15</sup>**

